Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

Taklif va tavsiyalar. Iqtisodiyotni tartibga solishning davlat mexanizmi bozor mexanizmi bilan uzluksiz bo`glangan. Bundan hulosa qilsak, «Samarasiz davlat boshqaruvi bilan iqtisodiy barqaror rivojlanib bo`lmaganidek, ijtimoiy rivojlanib ham bo`lmaydi». Bu borada taniqli iqtisodchi P.Samuelson shunday deydi – «Iqtisodiyotni u yoki bu mexanizmisiz boshqarish – bu bir qo`lda qarsak cholish bilan barobardir».

Ilmiy rahbar: “Iqtisodiyot” kafedrasi stajyor-o’qituvchisi O.Olchinboyev

Adabiyotlar ro’yhati:

1. S.Yunusova, “Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish usullari”, O`quv-uslubiy majmuasi, NamDU, 2022-yil;
2. Abulqosimov H.P. “Iqtisodiyotni tartibga solishning bozor va davlat mexanizmlari” - Toshkent, Akademiya, 2012-yil;
3. Abulkasimov H.P. “Makroiqtisodiy tartibga solish va O`zbekistonning barqaror rivojlanishi” – Toshkent, Akademiya, 2011-yil;
4. Erkaev B.A., Karimova G.I., Abdulqosimov X.P. “Bozor iqtisodiyotini davlat tomonidan tartiga solish vositalari”. Toshkent, «Sharq» 1996-yil.

KORXONALARDA AYLANMA MABLAG‘LARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich
TDIU Andijon fakulteti, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Umarova Feruzabonu Toshmamat qizi
TDIU Andijon fakulteti, Menejment 60/23- guruxi, 1-bosqich talabasi.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlarning asosi va tub maqsadi – mamlakatda yalpi ichki mahsulotni yanada ko‘paytirish, aholi ehtiyojlarini to‘liq qondirish, xalqimiz va milliy bozorlarimizni sifatli, arzon, raqobatbardosh mahsulotlar bilan ta’minlash, korxonalar faoliyatini takomillashtirish orqali ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish, aholini zarur ish joylari bilan ta’minlash, har tomonlama ijtimoiy muxofaza qilish hamda ularning daromadlarini ko‘paytirish orqali iqtisodiy taraqqiyotga erishish, pirovardida mamlakatimizning milliy mustaqilligini mustahkamlashdan iboratdir.

Korxona xo‘jalik faoliyati mablag‘larni shakllantirish ancha qiyin masala sifatida sanaladi. Chunki bozor sharoitida naqd pul bilan bog‘liq muammolar vujudga kelib, ularni hal qilish uchun esa korxonada samarali boshqaruvni tashkil etishni, ilmiy asoslangan qarorlar asosida korxonaga tegishli mablag‘larni samarali sarflashni tashkil etish zarur bo‘ladi.

Shularni inobatga olgan holda korxona xo‘jalik faoliyatida aylanma mablag‘larning o‘rini va ahamiyati muhim bo‘lib, aylanma mablag‘larning me’yorini

Published: 17.05.2024
Cite this article: Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich, Umarova Feruzabonu Toshmamat qizi (2024). Korxonalarda aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish yo‘llari. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/95
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

belgilash, sotilgan mahsulotlar, tovarlar uchun oldindan bo‘nak to‘lovini olish kabi masalalarga qaratilgan.

Ma’lumki, aylanma fondlar ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligini ta’minlovchi asosiy omillardan biridur. Aylanma fondlarga iqtisodiy adabiyotlarda quyidagicha ta’riflar keltirilgan:

«Aylanma fondlar – bu ishlab chiqarish jarayonida bir marta qatnashib, o‘z qiymatini tayyor mahsulotga o‘tkazib, o‘z shaklini ham o‘zgartiradigan, butunlay yo‘qotib yuboradigan mehnat buyumlaridir»[1].

«Aylanma ishlab chiqarish fondlari–korxona ishlab chiqarish fondlarining bir qismi bo‘lib, bitta ishlab chiqarish sikli davomida sarflanadi hamda natural shaklini o‘zgartirib, o‘z qiymatini to‘lig‘icha tayyor mahsulot tannarxiga o‘tkazadi»[2].

“Ishlab chiqarish va muomala fondlari zaxiralarini shakllantirish uchun mo‘ljallangan pul mablag‘lari korxonaning aylanma mablag‘lari deyiladi”[3].

“Aylanma mablag‘lar-bu ishlab chiqarish va muomala fondlarining puldagi ifodasidir”[4].

Demak mehnat jarayonida moddiy resurslarning ashyoviy elementlarining natural shakli va fizik-kimyoviy xususiyatlari o‘zgaradi. Ishlab chiqarish iste’moli sari ularning iste’mol qiymati o‘zgarib yuqoladi va yangi iste’mol qiymati, ulardan tayyorlangan mahsulot shaklida paydo bo‘ladi.

Korxona iqtisodiyotiga aylanma mablag‘larning tarkibi va tuzilmasidan tashqari, ularni ishlab chiqarish, takror ishlab chiqarish va muomalaning turli bosqichlarida izlab topish katta ta’sir ko‘rsatadi. Aylanma mablag‘larning to‘liq aylanishi uch bosqichdan iborat bo‘lib, bu jarayonda mahsulot ishlab chiqariladi va sotiladi.

Birinchi bosqichda aylanma mablag‘lar pul shaklidan moddiy boyliklarning ishlab chiqarish zahiralariga aylanadi, ya’ni pul – tovar (P-T).

Ikkinchi bosqich ishlab chiqarish, yani mahsulotni tayyorlash jarayonini o‘z ichiga oladi. Bu bosqichda aylanma mablag‘lar va birinchi o‘rinda aylanma fodlar tugallanmagan ishlab chiqarish va yarim tayyor mahsulotlar holiga keltirilib, tovar shaklini oladi (T).

Uchinchi bosqichda aylanma mablag‘lar tovar mahsuloti shaklida muomalaga kiritilib, sotiladi va yana pul shaklini oladi (T-P).

Demak aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish korxona faoliyatini normal ta’minlashda, ishlab chiqarish rentabelligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda korxonalarda aylanma mablag‘lardan foydalanish darajasiga debitorlik qarzlari ham yuqori darajada ta’siri yuqori bo‘lib mablag‘lar aylanish davri ortishiga olib kelmoqda.

Shuni takidlash lozimki korxonada aylanma mablag‘larna aylanishini tezlashtirish uchun ishlab chiqarish zahiralarini tuzish bosqichida iqtisodiy asoslangan zahira normalarini joriy etish, xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar ta’minotchilarining iste’molchilarga yaqinlashuvini ta’minlash, moddiy – texnik ta’minotning ombor tizimini, shuningdek materiallar va uskunalar birja savdosini kengaytirish va standartizatsiya va unifikatsiyani rivojlantirish va takomillashtirish zarur.

Xulosa sifatida bizningcha aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirish uchun har bir korxona ularning ishlab chiqarish va muomalada bo‘lish muddatini qisqartirishga erishishi, mahsulotni realizatsiya qilish muddatini qisqartirish ham aylanma mablag‘larning aylanishini tezlashtirishning muhim yo‘li hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvarda “2022-2026 yilarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-sonli Farmoni.
2. Ortiqov. A “Sanoat iqtisodiyoti” T.: TDIU, 2004y 186-bet.
3. Mahmudov. E “Korxona iqtisodiyoti” T.: TDIU, 2004y 125-bet.
4. Abdukarmov.B.A “Korxona iqtisodiyoti” T.: “Fan” 2005 y. 161-bet.
5. Abdukarimov B.A, Bektemirov B.A «Korxona iqtisodiyoti» T.: «Fan va texnologiya» 2013 y 199-bet.

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-IQTISODIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASH MASALALARI

Abduraxmonov Valijon G‘ofurovich
TDIUAF “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, i.f.n.
Shakirjonov Azizbek Shavkat o‘g‘li
TDIUAF “Bank ishi audit” yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim yo‘nalish sifatida belgilandi. Ushbu faoliyatning rivoji uchun puxta qonunchilik siyosati, mustahkam huquqiy baza shakllantirilgani va muntazam takomillashtirib borilayotgani, kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizatsiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko‘rsatilayotganini va ushbu chora-tadbirlar kambag‘allikni qisqartirishga yordam bermoqda. Kambag‘allikni qisqartirish davlat tomonidan amalga oshirilayotgani, turli yo‘nalishlarda tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu kabi muhim islohotlar natijasida 2021 yil yakuniga ko‘ra, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yalpi ichki mahsulotda 58,9 foiz, sanoat mahsulotlari hajmida 40,6 foiz, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmida 98,4 foiz, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmida 35,8 foizga etdi. Aholining mehnat bilan band qismining 77,9 foizi mazkur tarmoqda mehnat qilmoqda. Kambag‘allikni qisqartirishda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish, ushbu jarayonlarning samaradorligini oshirish, kichik biznes uchun qulay ishchan muhitni yaratish, tartibga solishning pul-kredit mexanizmlaridan samarali foydalanish, uning tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini kuchaytirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirish orqali kambag‘allikni qisqartirish borasidagi imkoniyatlaridan to‘laroq foydalanish, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni amaliyotga joriy etish dolzarb hisoblanadi.